

**O‘QUVCHILARNING GEOLOGIK BILIMLARINI
SHAKLLANTIRISHDA TABIIY GEOGRAFIYA TA’LIM METODLARI
VA TA’LIM VOSITALARINING TUTGAN O‘RNI VA IMKONIYATLARI**

Mamatisakov Jahongirmirzo

Farg’ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta’lim metodlari va ta’lim vositalarining mazmun mohiyati, ularning klassifikatsiyasi hamda ta’lim jarayoniga jalb etishning foydali jihatlari haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari o‘quvchilarning geologik bilimlarini shakllantirishda ta’lim metodlari va ta’lim vositalarining imkoniyatlari tahlil qilingan.

Kalitso‘zlar: ta’limmetodi, kompetensiya, ta’limvositalari, geografikta’lim, an’anaviyders, geografiyamaydonchasi, pedagogiktarbiya

**THE ROLE AND POSSIBILITIES OF NATURAL GEOGRAPHY
EDUCATIONAL METHODS AND EDUCATIONAL TOOLS IN FORMING
STUDENTS' GEOLOGICAL KNOWLEDGE**

Annotation

This article discusses the content of educational methods and educational tools, their classification, and the benefits of involving them in the educational process. In addition, the possibilities of educational methods and educational tools in the formation of students' geological knowledge were analyzed.

Key words: educational method, competence, educational tools, geographical education, traditional lesson, geography site, pedagogical training

KIRISH. Ta’limoluvchilarningbilimi,
ko‘nikmavamalakalarinizamontalablarigamosbo‘lishinita’minlashmaqsadidao‘qitu
vchilargayuklanganvazifalarnihoyatdasalmoqlivamas’uliyatlidir.
Buvazifanibajarishdao‘qituvchilarqaysiturdagita’limmuassasasidamehnatqilishidan

qat'iy nazardoimiyravishdao'zustilaridamustaqilishlashlari, malakalarini oshirib borishlarivailmiyijodiyizlanishlarizarurdir.

Davlat ta'lim standartlaritalablarinibajarishmajburiyliginuqtainazaridanhamo'qituvchiningkasbiykompetentlikdarajasidavrtalabigamoskelishimuammoyechiminiijobiy haletilishinitala'minlashishubhasiz. Anashumaqsaddao'qituvchilartomonidanta'lim jarayonidao'qitishningzamonaviymetodlarinikengqo'llashzaruratimavjuddir. O'qitishningzamonaviymetodlariniquo'llasho'qitishjarayonidayuqorisamaradorlikkaerishishgaolibkeladi.

Ta'lim metodlarinitanlashdaha bir darsning didaktik vazifasidankelibchiqibtanlash maqsadgamuvofiqsanaladi. An'anaviy darsshaklinis aqlabqolgan holda, uning a'zolari ta'lim oluvchilarning faoliyatini faollashtiradigan metodlar bilan boyitish ta'lim oluvchilarning o'zlashtirish darajasining ko'tarilishiga olib keladi. Buning uchun dars jarayoni dasturlixil metodlarni qo'llash va ta'lim oluvchilarning amaliy mashqlarini mustaqil bajarishga undashtalabetiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR. Metod so'zi yunoncha "tadqiqot", "maqsadga erishish yo'li", usuli deganidir. Metod - eng umumiy ma'noda - maqsadga erishish usuli, ma'lum tarzda tartibga solingan faoliyatdir. Metodlarning asosiy mazmunini amaliyotda sinalgan ilmiy nazariyalar tashkil etadi [1]. Har qanday ilmiy nazariya mohiyati jihatidan metod funksiyasiga egadir. Metod, o'z navbatida, yangi ilmiy nazariyalar va qonuniyatlarning ochilishiga vosita bo'ladi. Ta'lim metodlari deyilganda, o'rganilayotgan ma'lumotlarni egallashga qaratilgan turli didaktik vazifalarni hal etish bo'yicha o'qituvchining o'rgatuvchi ishi va o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish usullari yig'indisi tushuniladi. Ta'lim metodlari dastlab pedagoglar ongida muayyan yo'nalishdagi faoliyatning umumlashma loyihasi tarzida namoyon bo'ladi. Mazkur loyiha amaliyotga o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining o'zaro tutashuvi, o'qitish va o'qishga qaratilgan aniq harakatlar, amallar yoki usullar majmuasi sifatida joriy etiladi. Metod boshqa shakllarda namoyon bo'lmaydi, buning boisi ta'lim metodi o'zida umumiy holda faoliyatning didaktik modelini ifoda etadi. Didaktikada, shuningdek, ta'lim usullari atamasi ham keng qo'llanadi. Geografiya ta'limi jarayonini tashkil

etilishida ta'lim metodlari va vositalari birgalikda qo'llaniladi. Ta'lim vositalari - bu yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan foydalaniladigan obyektlardir. Ta'limning barcha vositalari ta'lim maqsadlarini muvafaqqiyatli amalga oshirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Ta'lim vositalarining ahamiyatga katta bo'lib, ular geografiya ta'limi jarayonida o'quv maqsadlarga erishishda foydalaniladigan ma'lumotlar va "qurollar"; geografik va geologik bilim hamda ko'nikmalarni o'zlashtirishda o'quvchilar va o'qituvchi tomonidan foydalaniladigan moddiy yoki mukammal obyektlar hisoblanadi [2].

Ta'lim vositalari geografiya ta'limining maqsadlari, mazmunlari, tashkiliy shakllari va metodlariga bog'liq holda tanlanadi. O'qituvchi o'z ixtiyori bo'yicha ko'rsatmali materiallar va o'quv qo'llanmalardan foydalanishi mumkin. Ta'lim vositalarini qo'llashning yana bir jihati - ta'lim jarayonining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lishidir. Ta'lim vositalarining didaktik ahamiyati – bu o'quv ma'lumotlarining o'zlashtirilishini tezlatishdan iborat. Ma'lum bir ta'lim vositasini tanlash ma'lum bir ta'lim metodini tanlash bilan bog'liq bo'ladi. Agar ta'limning faol metodi (kitob bilan ishlash, mashq qilish) tanlansa, u holda o'quv qo'llanmalari, darsliklar va texnik vositalardan foydalaniladi. Ta'lim vositalari tasnifi aniq, yagona va o'zgarmas bo'lishi mumkin emas. Ta'lim vositalarining ahamiyatli jihati ularning birgalikda qo'llanilishi va hech qachon bir-birini inkor etmasligida namoyon bo'ladi. O'qituvchining vazifasi – dars jarayonini faollashtirish uchun ta'limning samarali vositasini tanlay va qo'llay olishi. Umumta'lim maktablarida ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni yechish maqsadida o'quv jarayoni tarkibiga kiritilgan bilim manbalari ta'lim yoki o'quv vositalariga aylanadi. Masalan:geologik mazmundagi mavzularni o'zlashtirishda jumladan tog' jinslari ochilmasi o'quvchilar tomonidan o'rganilgan taqdiridagina ta'lim vositalariga aylanadi. Ta'lim vositalari tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy bilimlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. Ta'lim vositalarining asosiy vazifasi bilim olish jarayonida ko'rgazmalilikni ta'minlashdir.

Didaktik tadqiqotlar ko'rsatadiki, ta'lim metodlari nomenklaturasi (nomlanishi) va tasnifi ularni ishlab chiqishda tanlangan yondashuvga bog'liq holda

juda xilma-xil ekanligi bilan xarakterli. Ulardan eng muhimlariga to'xtalamiz. Demak, ta'lim metodlari quyidagicha tasniflanadi:

- *An'anaviy ta'lim metodlari*: og'zaki, ko'rgazmali, amaliy, kitob bilan ishlash va video metodlari.

- *O'quvchilarning bilish faoliyati tavsifiga ko'ra ta'lim metodlari*: Axboriy-retseptiv, reproduktiv, muammoli bayon etish, evristik (qisman izlanish), tadqiqotchilikka doir.

- *Asosiy didaktik maqsadlarga ko'ra ta'lim metodlari*: a) yangi bilimlarni egallash; b) ko'nikma va malakalarni shakllantirish; d) bilimlarni amaliyotda qo'llash.

- *Yaxlit yondashuv bo'yicha ta'lim metodlari*: a) bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash va nazorat qilish metodlari; b) o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish va amalga oshirish metodlari; d) o'quv-bilish faoliyatini motivatsiyalash va rag'batlantirish metodlari; c) o'quv-bilish faoliyatini nazorat va o'z-o'zini nazorat qilish metodlari.

- *Interfaol metodlar va grafik organayzerlar*: a) o'rganilayotganlarini o'zlashtirishga da'vat qilish metodlari; b) yangi materialni anglash metodlar; d) o'rganilganlarini fikrlashga imkon beruvchi metodlar. Ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda ko'rgazmali metodlar ham alohida ahamiyatga ega. Tasvir (illyustratsiya) metodi namoyish metodiga chambarchas bog'liq bo'lsada, didaktikada alohida o'rganiladi. Ilyustratsiya narsa, hodisalar va jarayonlarni ularning ramziy ko'rinishlari - chizma, rasm, fotosurat, yassi modellar va boshqalar yordamida ko'rsatishni taqozo etadi. Namoyish (demonstratsiya) metodi o'rganilayotgan obyekt harakat dinamikasini ochib berishda qo'l keladi va ayni chog'da predmetning tashqi ko'rinishi va ichki tuzilishi haqida to'laqonli ma'lumot berishda keng qo'llaniladi. Geologik obyektlar namoyish qilishda, odatda uning tashqi ko'rinishi (shakli, hajmi, miqdori, rangi, qismlari, ularning o'zaro munosabatlari)ga e'tibor qaratiladi, so'ngra ichki tuzilishi yoki alohida xususiyatlarini o'rganishga o'tiladi. Ko'rsatish ko'p holatlarda o'rganilayotgan obyektlarning subyekt yoki chizmasi yordamida kuzatiladi. Amaliy metod -

o'zlashtirilgan bilimlarni amaliy masalalar yechimini topishga yo'naltirilgan jarayonda qo'llashni taqozo etadi. Bunda nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasi hosil qilinadi. Amaliy ishlar sinfda yoki tabiiy sharoitlar - maktab yer maydoni, issiqxona, geografik maydonlarda amalga oshiriladi. Ularni amalga oshirishda sodir etiladigan harakatlar o'qituvchi tomonidan nazorat qilinadi va zarur hollarda yo'riqnoma yoki maxsus ko'rsatmani o'quvchilar e'tiboriga havola etadi. Ta'lim vositalarini tasniflashga turli asoslar bo'yicha yondashish mumkin.

Adabiyotlar tahlili davomida ta'lim vositalarining turlicha tasniflanishi kuzatildi.

Jumladan, ta'lim vositalari quyidagicha tasniflanadi [3]:

Ta'lim oluvchilarga ta'sir etishi tavsifiga ko'ra:

- Vizual ta'lim vositalari: narsa-predmetlar, maketlar, xaritalar, diafilmlar, slaydlar, AKT - taqdimotlar;

- Audio ta'lim vositalari: musiqiy markaz, radio;

- audiovizual: televideniye, kinofilmlar, AKT-taqdimotlar.

2. Murakkabligi bo'yicha:

- oddiy: darsliklar, bosma qo'llanmalar, rasmlar, modellar;

- murakkab: mexanik vizual vositalar, lingafon xonalar, kompyuterlar.

- tabiiy ta'lim vositalari (predmetlar, borliqdan olingan ashyolar: o'simliklar, turli toshlar kolleksiyasi);

- timsolli ta'lim vositalari (belgilar vositasida borliqni aks ettiruvchi rasmlar, sxemalar, xaritalar);

- texnik ta'lim vositalar: vizual, audial, audiovizual vositalar.

Geografiya ta'limi jarayonida elektron ta'lim vositalari muhim o'rin tutmoqda.

Internet manbalarda elektron ta'lim vositalari matnli elektron nashrlar, tasvirli elektron nashrlar va ovozli elektron nashrlarga ajratilmoqda.

- matnli elektron nashrlarga matnli ma'lumotlardan iborat elektron nashrlar kiritiladi;

- tasvirli elektron nashrlarga obyektlarning grafik tarzidagi va elektron shakldagi namunalaridan iborat elektron nashrlar kiritiladi;

- ovozli elektron nashrlar - eshitish imkoniyatini beruvchi ovozli formatdagi raqamli ma'lumotlardan iborat elektron nashrlar hisoblanadi

Geografiyani o'qitishda zamonaviy mobil axborot materiallari ham muhim rol o'ynaydi. Ular turli xil ma'lumot manbalarida mavjud bo'lib, tabiatda va jamiyatda sodir bo'layotgan jarayonlar va hodisalarni aks ettiradi. Bular davriy matbuot, ma'lumotnomaviy nashrlar, meyoriy hujjatlar, Internet materiallari, televideniye dasturlari, filmlar va hokazolarni o'z ichiga oladi, shuning uchun o'quv vositalarining muhim xususiyati - ularning majmualiligi [4].

Yuqoridagi xususiyatlarni hisobga olgan holda geografiya darslarida o'quvchilarning geologik bilimlarni o'rganish jarayonida o'quv vositalaridan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni beradi:- o'quv ma'lumotlarini taqdim etish hajmi, murakkabligi, mantiqiyliigi va taqdim etish shaklini belgilash; - ta'lim jarayonini bilimlar manbai va amaliy ishlarni bajarish vositalari (o'quv-uslubiy to'plamlar, ma'lumotnomalar, texnik ashyolar, priborlar, asboblar va boshqalar) bilan ta'minlash; - ta'lim jarayonini (darslarni) obrazli, jonli, esda qolarli qilib o'rganish, zarur bilimlarni o'rganish, amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish, o'quvchining bilim olish faoliyatini rag'batlantirish; - o'quvchilar geologik madaniyat va geografik fikrlash dunyosiga chuqurroq kirib borish; - o'qituvchi o'quvchilarning bilim, aqliy va amaliy faoliyatini boshqarishi samaraliroq kechishi; - o'quvchi shaxsini shakllantirishga ta'limning ta'sirini kuchaytirish, ularning ijodiy va hissiy rivojlanishiga hissa qo'shish. Shunday qilib, tabiiy geografiya o'qitish vositalari o'quvchilarning ta'lim mazmuni, tarbiya va o'quvchini rivojlantirishni amalga oshirishning muhim va zarur shartlaridan biri. Bundan kelib chiqadiki, o'quv jarayoni samaradorligiga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim omil bu ta'lim vositalarining sifati. Shuning uchun o'qituvchi tomonidan vositalarni tanlash yuqoridagi shartlarga bog'liq bo'lishi lozim. Geografiyani o'qitish vositalari o'quv jarayonida tuzilishi va tarkibi jihatdan ma'lum bir tartibda bo'lishi ta'lim jarayonida ulardan samarali foydalanish imkonini beradi. Bunday sharoitlar maxsus jihozlangan maktab xonasida – geografiya kabinetida yaratiladi. Geografiya fanining o'ziga xos xususiyati maktabda geografiya kabineti bilan bir qatorda

o'lkashunoslik muzeyi (burchak) va geografik maydonchani ham tashkil etishni taqozo qiladi [5].

XULOSA. Geografiya ta'limi metodikasi o'quvchilarda geografik va geologik bilimlarni shakllantirishga imkon beruvchi ilg'or ta'lim texnologiyalarini tavsiya qiladi, biroq ularning aksariyatida o'quvchilarning geologic bilimlarni rivojlantirishga asoslangan o'ziga xos xususiyatlar aniq va to'liq o'z ifodasini topmagan. Umumiy o'rta ta'lim maktablari amaliyotida tabiiy geografiya kurslari o'quv-tarbiyaviy jarayonida o'quvchilar geologik bilimlarini shakllantirish tizimi mavjud emas. O'quvchilarning geologik bilish jarayoniga eng kuchli ta'sir ko'rsatadigan asosiy omil – bu maqsadga yo'naltirilgan geografiya ta'limi jarayoni hisoblanadi. Geografiya ta'limi muayyan o'quv-tarbiyaviy omillarning imkoniyatlarini o'zida jamlab, o'quvchi shaxsida geologik bilimlarning barcha tarkibiy qismlarini to'liq shakllantirishga psixologik-pedagogik va metodik jihatdan tegishli shart-sharoitlar, xususan, ta'lim vositalaridan foydalanishning metodik tizimi yaratilishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.X.Xodjayev “Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti”. Toshkent – 2017, “Sano-standart” nashriyoti.
2. O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi” T., 2000 y. O'. Asqarova, M. Nishonov, M. Xayitbaev “Pedagogika” T., “Talqin” 2008 y. R. Mavlonova “Pedagogika” T., “O'qituvchi” 2004 y.
3. To'raqulov X.A. “Pedagogik tadqiqotlarda axborot tizimlari va texnologiyalari”. Toshkent: Fan, 2006.
4. Khaydarov, S. A. (2021). The role of the use of fine arts in teaching the history of the country. International scientific and practical conference. CUTTING EDGE-SCIENCE. In *Conference Proceedings* (pp. 41-43).
5. Jahongirmirzo Mamatisakov (2022). IMPROVING STUDENTS' GEOLOGICAL KNOWLEDGE BY SCHOOL GEOGRAPHY EDUCATION. Academic research in educational sciences, 3 (10), 88-94.